ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 159.9.072
ORCID: 0009-0005-2696-5673

NORMUMINOV SHAVKAT ERKINOVICH
TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail: shavkatnormuminov0@mail.ru
+998 91 580-24-80

SHAXS ISTE'DODI VA MAXSUS QOBILIYATLARINI FAOLIYATGA TA'SIRI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada shaxs iste'dodi va maxsus qobiliyatlarining namoyon bo'lishi, ularning shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi individual va ijtimoiy omillar nazariy hamda ilmiy jihatdan batafsil tahlil etilgan. Tadqiqotda shaxs qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida biologik, psixologik va ijtimoiy muhit omillarining o'zaro bog'liqligi va ta'sir mexanizmlari yoritilgan.

Shuningdek, maqolada iste'dod va maxsus qobiliyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi individual hamda ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilingan. Olib borilgan mustaqil tadqiqotlar asosida iste'dod va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan yo'llari ishlab chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: *Shaxs, iste'dod, maxsus qobiliyatlar, tafakkur, tadqiqot, kuzatish, Ayzenk so'rovnomasi, individual rivojlanish, kreativlik.*

ВЛИЯНИЕ ТАЛАНТА И ОСОБЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ЧЕЛОВЕКА НА ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

АННОТАЦИЯ: В данной статье подробно анализируются теоретические и научные аспекты проявления одаренности и специальных способностей личности, а также индивидуальные и социальные факторы, влияющие на их формирование и развитие. В исследовании освещаются взаимосвязь и механизмы влияния биологических, психологических и социальных факторов среды в процессе развития способностей личности.

Также в статье анализируются результаты опытно-экспериментальной работы, направленной на выявление индивидуальных и социально-психологических факторов, влияющих на развитие таланта и специальных способностей. На основе проведенных самостоятельных исследований разработаны научно обоснованные пути повышения эффективности развития таланта и специальных способностей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Личность, талант, специальные способности, мышление, исследование, наблюдение, опросник Айзенка, индивидуальное развитие, креативность.*

THE IMPACT OF A PERSON'S TALENT AND SPECIAL ABILITIES ON ACTIVITY

ABSTRACT: This article provides a detailed theoretical and scientific analysis of the manifestation of individual talent and special abilities, as well as the individual and social factors influencing their formation and development. The study elucidates the interrelation and mechanisms of influence of biological, psychological, and social environmental factors in the process of developing an individual's abilities. Furthermore, the article analyzes the results of experimental work aimed at identifying the individual and socio-psychological factors influencing the development of talent and special abilities. Based on independent research, scientifically grounded ways to increase the effectiveness of developing talent and special abilities have been developed.

KEYWORDS: Personality, talent, special abilities, thinking, research, observation, Eysenck Questionnaire, individual development, creativity.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida bugungi yoshlarni har tomonlama yuksaltirish, ularga barcha sharoitlarni yaratib berish kerak va zarurligi haqida: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." [Shavkat Miromonovich Mirziyoyev http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.] deb ta'kidlab o'tganlar.

Qobiliyatlar deganda kishilarning bir-birlaridan farq qiladigan individual psixologik xususiyatlari tushuniladi. Barcha kishilarga xos bo'lgan xususiyat va munosabatlarni hech kim qobiliyat deb hisoblamaganlar va ularni o'rganish ma'lum vaqt talab etadi. Kuzatish jarayonida o'quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin.

Har bir o'quvchi o'ziga xos qiziqishlari, intilishlari va shu bilan birgalikda qobiliyatlari miqdori mavjud. Har qaysi o'quvchining o'ziga xos bo'lgan yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individual xususiyatlarni hisobga olmasalar har qancha unumli metodlardan foydalanmasinlar o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Chunki ta'limning asosiy ishlardan biri o'quvchilarni umumiy rivojini ta'minlash. O'quvchining haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Shu tufayli yoshlarning psixik holatlarini to'g'ri yo'naltirishning pedogogik-psixologik asoslarini o'rganish muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda aqliy qobiliyat muammosi bir nechta yo'nalishlarda talqin etiladi: faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi individual psixologik xususiyat (L.S.Vigotskiy, L.S.Rubinshteyn, B.M.Teplov), iste'dodning asosini tashkil etuvchi faollik va o'z-o'zini boshqarish (B.F.Lomov, A.B.Brushlinskiy, N.S.Leytes, M.Xolodnaya) ta'lim va tarbiya ta'sirida o'zgaradigan va rivojlanadigan aqliy faoliyatning individual uslubi (V.S.Merlin, E.A.Klimov, N.I.Chuprikova), chet el psixologiyasida aqliy qobiliyat ko'p faktorli murakkab psixologik tuzilma (A.Bine, J.Piaje, Ch.Spirmen, Tyorstoun, Gilford, G.Ayzenk, R.B.Kettell, R.Sternberg) sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek bu boradagi mahalliy olimlar M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziev, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, E.Z.Usmonova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonovalarning izlanishlari hamda mutafakkir olimlarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalarning fikrlarida aqliy taraqqiyot, aql, aql imkoniyatlari va aqliy qobiliyatlar to'g'risidagi qarashlarida ham aqliy qobiliyat va uni tashkil etuvchi omillarga turlicha tavsif berilgan.

Ushbu tadqiqotimizda Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabining 10-sinf o'quvchilaridan jami 104 nafar respondent ishtirok etdi. Shaxs iste'dodi va maxsus qobiliyatlarini psixologik muammo sifatida o'rganish jarayonida Ayzenk test so'rovnomasi asosida tuzilgan qobiliyatni aniqlash metodikasidan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ushbu tadqiqotimiz doirasida 16-17 yoshda bo'lgan jami 104 nafar sinaluvchi ishtirok etishdi.

1 jadval

Jinsi bo'yicha ishtirokchilar soni

	Chastotasi	Foiz	Validlik foizi	Hisoblangan foizlar
yigitlar	70	67,3	67,3	67,3
qizlar	34	32,7	32,7	100,0
Jami	104	100,0	100,0	

Ushbu jadvalda ko'rinib turganidek tadqiqotimizda 70 nafar yigitlar va 34 nafar qizlar ishtirok etishdi.

1. rasm



1. rasm. "Jinslar bo'yicha ishtirokchilar soni"

Yuqorida berilgan diagrammada tadqiqotimizda ishtirok etgan ishtirokchilarning jinslar bo'yicha soni ko'rsatilgan. Jumladan yigitlar 70 nafarni tashkil etsa, qizlar 34 nafarni tashkil etadi.

Ushbu jadvalda tadqiqot ishtirokchilarining yosh ko'rsatkichlari bo'yicha statistikalari keltirilgan bo'lib quyidagicha tasvirlash mumkin.

2. jadval

Sinaluvchilarning yosh ko‘rsatkichlari.

		Chastotasi	Foiz	Validlik foizi	Hisoblangan foizlar
16,00	Yigitlar	24	32,7	32,7	32,7
	Qizlar	10			
	Jami 16 yosh	34			
17,00	Yigitlar	46	67,3	67,3	100,0
	Qizlar	24			
	Jami 17 yosh	70			
Jami		104	100,0	100,0	

2. rasm. Ishtirokchilarning yosh ko‘rsatkichlari.




Navbatdagi tahlilimiz ishtirokchilarning yoshi bo‘yicha bo‘lib bunda kichik yosh 16 yosh bo‘lsa, katta ishtirokchi 17 yoshda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘rtacha yosh ko‘rsatkichi 16,5 yoshni tashkil etadi.

3. jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Yo‘nalishlar nomi	Chastotasi	Foiz	Validlik foizi	Hisoblangan foizlar
Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	28,8	28,8	28,8
An’anaviy vokal artististi	14	13,5	13,5	42,3
An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	12,5	12,5	54,8
Musiqali teatr aktyori	19	18,3	18,3	73,1
Ommaviy bayramlar rejissori	15	14,4	14,4	87,5
Baxshichilik	13	12,5	12,5	100,0
Jami	104	100,0	100,0	



Ushbu jadvalda sinaluvchilarning mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, ushbu sinaluvchilar Termiz ixtisoslashtirilgan san’at maktabining Xalq cholg‘u ijrochiligi, An’anaviy vokal artististi, An’anaviy cholg‘u ijrochiligi, Musiqali teatr aktyori, Ommaviy bayramlar rejissori hamda Baxshichilik yo‘nalishlarida tahsil oluvchi 104 nafar o‘quvchilar hisoblanishadi.

3. rasm

O‘tkazilgan tadqiqot natijalarini Kolmagorov-Smirnov mezoniga muvofiqligini tekshirish natijalari quyidagicha.

Tadqiqot doirasida Termiz ixtisoslashtirilgan san’at maktabining 104 nafar o‘quvchilari ishtirok etdi, natijalarni normal taqsimlanishga mos kelishi yoki kelmasligini tahlil qilamiz. Ayzenk testi asosida tuzilgan shaxslararo qobiliyatni aniqlash so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra barcha shkalalar (D = 2,702 ≤ 0,001) normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaganligini kuzatdik. Ushbu metodika bo‘yicha tadqiqot natijalarini keyingi bosqichini ham noparametrik mezonlar asosida tahlil qilamiz.

Ayzenk test so‘rovnomasi asosida tuzilgan shaxslardagi qobiliyatlilik darajalarini aniqlash metodikasi natijalari mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha Kruskal-Uollis mezonida taxlil qilganimizda natijalar quyidagi ko‘rinishda bo‘ldi.

4. jadval

Ko‘rsatkichlar	Kolmagorov Smirnov mezoni Z qiymat	Ishonchlilik darajasi
Ayzenk testi asosida tuzilgan shaxslararo qobiliyatni anqlash so‘rovnomasi		
Lingvistik qobiliyat	3,589	,000***
Matematik qobiliyat	2,521	,000***
Ko‘rish qobiliyati	2,483	,000***
Kinetik qobiliyat	2,893	,000***
Tabiatsevarlik qobiliyati	2,819	,000***
Musiqiy qobiliyat	2,112	,000***
Suhbatdoshlik qobiliyati	2,627	,000***
Fikrlash qobiliyati	2,261	,000***

Izoh: p ≤ 0,001 (99,9 %), p ≤ 0,01 (99 %),

5. jadval

Rangi				Хи-Kvadrat	**Ishonchlilik darajasi**
	Mutaxassislik yo‘nalishlari	**N**	**O‘rtacha rang**		
Lingvistik qobiliyat	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	53,95	2,405	,791
	An’anaviy vokal artististi	14	61,29		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	53,27		
	Musiqali teatr aktyori	19	50,55		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	45,83		
	Baxshichilik	13	49,46		
	Hammasi	104			
Matematik qobiliyat	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	50,78	1,940	,857
	An’anaviy vokal artististi	14	54,64		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	60,88		
	Musiqali teatr aktyori	19	53,87		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	48,37		
	Baxshichilik	13	48,54		
	Hammasi	104			
Ko‘rish qobiliyati	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	40,00	10,885	,054
	An’anaviy vokal artististi	14	40,97		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	58,97		
	Musiqali teatr aktyori	19	57,37		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	65,73		


	Baxshichilik	13	49,04		
	Hammasi	104			
Kinetik qobiliyat	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	49,05	23,520	,000
	An’anaviy vokal artististi	14	35,54		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	39,92		
	Musiqali teatr aktyori	19	63,03		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	79,27		
	Baxshichilik	13	45,04		
	Hammasi	104			
Tabiatsevarlik qobiliyati	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	54,97	12,297	,031
	An’anaviy vokal artististi	14	62,07		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	58,58		
	Musiqali teatr aktyori	19	37,39		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	62,70		
	Baxshichilik	13	40,73		
	Hammasi	104			
Musiqiy qobiliyat	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	70,27	31,607	,000
	An’anaviy vokal artististi	14	57,14		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	53,85		
	Musiqali teatr aktyori	19	26,34		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	35,90		
	Baxshichilik	12	59,08		
	Hammasi	103			
Suxbatdoshlik qobiliyati	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	49,32	11,074	,050
	An’anaviy vokal artististi	14	56,75		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	67,15		
	Musiqali teatr aktyori	19	44,45		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	63,93		
	Baxshichilik	13	39,19		
	Hammasi	104			
Fikrlash qobiliyati	Xalq cholg‘u ijrochiligi	30	45,87	7,183	,207
	An’anaviy vokal artististi	14	68,79		
	An’anaviy cholg‘u ijrochiligi	13	49,77		
	Musiqali teatr aktyori	19	57,95		
	Ommaviy bayramlar rejissori	15	48,13		
	Baxshichilik	13	50,08		
	Hammasi	104			

Izoh: p ≤ 0,001 (99,9 %), p ≤ 0,01 (99 %), p ≤ 0,05 (95 %)

Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra sinaluvchilarning mutaxassislik yo‘nalishlari kesimida farqlar ayrim shkalalarda ko‘zga tashlandi.

Ko‘rish qobiliyati shkalasida (H = 10,855 ≤ 0,05). Eng yuqori qiymat Ommaviy bayramlar rejissorligi yo‘nalishida (65,73), eng kichkina qiymat esa xalq cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida (40,00) ni tashkil etdi. Ko‘rish qobiliyatga ega kishilarda tasviriy san’atga xaykaltaroshlik va chizmachilikka qiziqish katta bo‘ladi. Ommaviy bayramlar rejissyorligi yo‘nalishida sahna bezaklari, dekoratsiyalar bilan ishlash jarayoni aynan shu qobiliyatlarning rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.


ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ




4-rasm

Kinetik qobiliyatlar shkalasida (H = 23,520 ≤ 0,001) ishonchli farqlar ko'zga tashlandi. Eng yuqori qiymat Musiqali teatr aktyori yo'nalishida (79,27), eng kichik qiymat An'anaviy vokal artisti yo'nalishida (34,54). Bu qobiliyat egalari raqs, rol ijro etish, jismoniy mashqlar, sport o'yinlari va dramaga qiziqadilar. Aynan musiqali teatr aktyori yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning turli obrazlarni ijro etish jarayonida musiqiy, dramatik aktyorlik qobiliyatlari namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Tabiatsevarlik qobiliyati shkalasida (H = 12,297 ≤ 0,01) ishonchli farqlar ko'zga tashlandi. Eng yuqori qiymat Ommaviy bayramlar rejissyorligi yo'nalishida (62,70), eng kichik qiymat An'anaviy cholg'u ijrochiligi yo'nalishida (37,39). Bu qobiliyat egalari sayru-sayohatga, ekskursiyalarga ko'proq qiziqadi.




5-rasm




6-rasm

Musiqiy qobiliyatlar shkalasida (H = 31,607 ≤ 0,001) ishonchli farqlar ko'zga tashlandi. Eng yuqori qiymat Xalq cholg'u ijrochiligi yo'nalishida (70,27), eng kichik qiymat musiqali teatr aktyorligi yo'nalishida (26,34). Bu qobiliyat egalari qo'shiq aytishni, musiqa tinglashni, jo'r bo'lishni yaxshi ko'radilar. Aynan xalq cholg'u yo'nalishiga o'quvchilarni qabul qilish jarayonida xam doimiy raqobat kuchli ekanligi maktab ma'muriyati bilan suhbatlashish jarayonida ham oydinlashdi. Shu yo'nalish o'quchilarida musiqiy qobiliyatning yuqoriligi turli ko'rik tanlovlarda ham yuqori natijalarni ko'rsatganliklari aniqlandi.

Suhbatdoshlik qobiliyati shkalasi natijalariga ko'ra (H = 11,074 ≤ 0,01) ishonchli farqlar qayd etildi. Eng yuqori qiymat musiqali teatr aktyori yo'nalishida (67,15), eng kichik qiymat xalq cholg'u ijrochiligi yo'nalishida (39,19) ni tashkil etdi. Bu qobiliyat sohiblari hamdard, hamkor, xushmuomala bo'lishni, birgalikda turli loyihalar yaratishni xush ko'rishadi. Aktyorlik yo'nalishida turli xarakterdagi obrazlarni yaratish uchun turli soha vakillari bilan muloqot qilishlari, obrazlar xarakterini ochib berish uchun asosiy omil sanaladi. Shunig uchun ham bu yo'nalish sinaluvchilarida ushbu qobiliyat yuqori natija ko'rsatgan bo'lishi mumkin.



ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ



XULOSA. Tadqiqot ishimizda tanlangan metodika orqali olingan ma`lumotlarni matematik statistik usullar bilan qayta ishlaganimizda kelib chiqqan tafovutlarni jadvallar va rasmlarda keltirib o'tdik.

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki mutaxassislik yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchilarda nomoyon bo'lgan qobiliyatlar ularning o'quv faoliyatlarini muvaffaqiyatli kechishida o'z ta`sirini ko'rsatmoqda. Ushbu ma`lumotlar asosida eng yuqori qiymat Ommaviy bayramlar rejissori (76,77), Baxshichilik (75,46), Musiqali teatr aktyori (66,95). Ta`lim jarayonida ushbu mutaxassislik o'quvchilarida aktyorlik mahorati, raqs ijro etish qobiliyati yuqori rivojlanganligi namoyon bo'ldi. Kasb yo'nalishlari xususiyati ham ushbu qobiliyatlarni rivojlanishini taqozo etadi, tahlil natijalari ham bu narsani isbotladi.

Shuningdek tahsil olayotgan yo'nalishlaridagi ta`lim jarayoni sinaluvchilardagi maxsus qobiliyatlarni rivojlanishiga motiv bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Abdiev S., SH.To'laganova., Psixodiagnostika – T.: 2008. - 331 b.
2.Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. – T.: Universitet, 2003. - 34 b.
3.Qodirov B.R.—Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari. – Toshkent 2014.
4.G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. -Toshkent: 1990. – B. 156-184.
5.Sharafutdinova X.G. Uzluksiz ta'lim tizimida aqliy qobiliyat diagnostikasi va psixokorreksiyasi // Diss. materiallari. - Toshkent, 2009. - B. 11-28.
6.ТЕОРИИ РАЗВИТИЯ ТАЛАНТА И СПЕЦИАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ПСИХОЛОГИИ. Ш.Э.Нормуминов. Academic research in educational sciences 3 (4), 246-253.